

O'ZBEKISTONDA "BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH" BOJXONA REJIMINING QO'LLANILISHINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI

Pardaev Ilhomjon G'ulom o'g'li

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi
Tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i.

Qobulov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining
Bojxona instituti magistratura bosqichi tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18243735>

Annotatsiya. Ushbu maqolada "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimining qo'llanilishini kengaytirish istiqbollari, mavjud muammolar tahlil qilingan va ularning yechimlari bo'yicha istiqbolli takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bojxona rejimi, "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimi, "bojxona to'lovlaridan ozod hudud", qayta ishlash operatsiyalari, chiqish normasi, erkin iqtisodiy zona.

Аннотация. В данной статье рассматриваются перспективы расширения применения таможенного режима «переработка на таможенной территории», анализируются существующие проблемы и разрабатываются перспективные предложения по их решению.

Ключевые слова: таможенный режим, таможенный режим «переработка на таможенной территории», «зона без уплаты таможенных платежей», операции переработки, норма выхода, свободная экономическая зона.

Abstract. This article analyzes the prospects for expanding the application of the customs regime "inward processing", existing problems and develops promising proposals for solving them.

Key words: customs regime, customs regime of "inward processing", "zone without customs duties", processing operations, rates of yield, free economic zone.

Mamlakat eksportini oshirish orqali ijobiy tashqi savdo saldosiga erishishga ko'maklashuvchi kuchli vositalardan biri bu "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimida tovarlarni qayta ishlashdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 18-yanvar kuni 2024-yilda investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga yetkazishda ishonchli logistika zanjirlarini tashkil qilish, mintaqaviy va yirik xalqaro loyihalarni jadallashtirish, tovarlarni bojxona rejimida qayta ishlashni kengaytirish" bo'yicha topshiriqlar berildi¹.

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga bir so'z bilan "bojxona to'lovlaridan ozod hudud" sifatida ta'rif berishimiz mumkin. Oxirgi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan bojxona hududida qayta ishlash rejimida tovarlarni qayta ishlashda tadbirkorlarga qulayliklar yaratishga muhim e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi "Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo'llashni soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-115-son Farmoni ushbu rejim imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/6975>

Farmon 2022-yilning 1-mayidan kuchga kirib, u bilan bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga tovarlarni rasmiylashtirishdagi ko'plab to'siqlar olib tashlandi.

Jumladan:

- qayta ishlash operatsiyalari ro'yxati mahsulotlarni qadoqlash, o'rash, saralash, tozalash, uskunalarini modernizatsiya qilish kabi operatsiyalarni kiritish hisobiga kengaytirildi;

- bojxona hududida qayta ishlash rejimiga rasmiylashtirishda tovarlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini majburiy tasdiqlash hamda sanitariya-epidemiologik xulosani taqdim etish tartibi bekor qilindi;

- maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari va vakolatli iqtisodiy operator maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash talabi olib tashlandi;

- tovarlar eksport qilingandagi moliyaviy va tarif imtiyozlari qayta ishlashdan hosil bo'lgan tayyor mahsulotlar reeksportiga ham tatbiq etilishi belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-oktabrdagi "Sanoat ishlab chiqarishida xomashyo uzluksizligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha qulayliklarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-392-son Qarori bilan "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimi doirasida barcha tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash talabi bekor qilindi.

Ushbu taqdim etilayotgan imtiyozlar natijasida bojxona hududida qayta ishlash rejimida tovarlarni rasmiylashtirgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yilning yanvar-aprel oylarida 212 nafarni tashkil etib (2023-yil 109 nafar), 2025-yilning shu davriga nisbatan 103 nafarga, yoki, 94,5 foizga oshdi. Qayta ishlash uchun berilgan ruxsatnomalar soni esa, saralash va qadoqlash maqsadida olib kirilgan ho'l va quruq mevalar, tozalash va qadoqlash maqsadida olib kirilgan o'simlik yog'i, qadoqlash uchun olib kirilgan mineral o'g'it tovarlari va ushbu tovarlarni qadoqlashda ishlatiladigan tovarlar hisobiga, ushbu davrda 269 tadan 506 taga yetib, 88,1 foizga oshdi (1-jadval).

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimining qo'llanilish dinamikasi²

1-jadval

Yil	2024 (yanvar-aprel)	2025 (yanvar-aprel)	Farq	Farq foizda
Rejimga rasmiylashtirgan tashkilotlar soni	109	212	103	94,5%
Rasmiylashtirilgan ruxsatnomalar soni	269	506	237	88,1%

Bugungi kunda, Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo'llashga doir birqancha qulayliklar yaratilayotgan bo'lsada, o'rganishlar davomida tovarlarni mazkur bojxona rejimiga joylashtirishda tadbirkorlik subyektlariga ayrim cheklovlar mavjudligi ma'lum bo'ldi.

Xususan:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-avgustdagi 531-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Bojxona nazorati ostidagi tovarlarga nisbatan yuk operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 4 va 29-bandlariga ko'ra, bojxona nazorati

² Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan qayta ishlangan

ostidagi tovarlar bojxona omboriga yetkazilishi belgilangan. Qayta ishlash rejimiga rasmiylashtiriladigan tovarlarning chegara bojxona postidan kirib kelib, bojxona omborlarida vaqtinchalik saqlanishi va keyinchalik ishlab chiqarish obyektlariga olib borilishi amaliyoti tadbirkorlar uchun ortiqcha vaqt va mablag'larning sarflashiga sabab bo'layotganligi;

- O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 80-moddasi bo'yicha qayta ishlash mahsulotlarini yoki uning qoldiqlarini, shuningdek tovarni qayta ishlash chiqindilarini olib chiqish yoxud ularni boshqa bojxona rejimlariga joylashtirish bilan tugallanishi kerakligi belgilangan. Ya'ni, qayta ishlash mahsulotlarini ichki hududda qoldirgan holda erkin muomalaga chiqarish mumkinligi belgilangan.

Biroq, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyuldagi 429-sonli qarori ilovasi bilan tasdiqlangan "Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydagi 283-son qarori bilan tasdiqlangan Tashqi savdo operatsiyalari amalga oshirilishi monitoringini olib borish va nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar"ga muvofiq tovarlarni bojxona ombori, erkin ombor, erkin bojxona zonasi, bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimlariga rasmiylashtirish olib kirish kontrakti bo'yicha, shuningdek, ular uchun to'langan pul mablag'larini qaytarish muddati ushbu kontraktlar bo'yicha to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 180 kundan ortiq bo'lmasligi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, olib kirish kontrakti – O'zbekiston Respublikasining rezidenti va norezidenti o'rtasida tovarlarni bojxona ombori, erkin ombor, erkin bojxona zonasi, bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimlariga joylashtirish uchun sotib olish va keyinchalik olib chiqish kontrakti asosida boshqa norezidentga sotish nazarda tutilgan kontrakt ekanligi belgilangan.

Shu sababli, qayta ishlovchi tadbirkorlar tomonidan olib kirish shartnomasi asosida olib kirilgan tovarlardan hosil bo'lgan xomashyo hamda ulardan tayyorlangan mahsulotlarni erkin muomalaga chiqarishga yuqoridagi qaror normalariga to'g'ri kelmasligi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi "Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi qo'llanilishini soddalashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-115-sonli Farmon bilan tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirishda tovarlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini majburiy tasdiqlash hamda sanitariya-epidemiologik xulosani taqdim etish talab etilmasligi belgilangan. Lekin, bugungi kunda tovarlarni qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan chiqindilarni tadbirkorlik subyektlari tomonidan erkin muomalaga chiqarishda chiqindilardan keyinchalik foydalanmasada ortiqcha mablag' sarflagan holda sertifikat olishiga to'g'ri kelayotganligi;

- Bojxona kodeksining 183-moddasiga ko'ra, bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar yoki ularni qayta ishlash mahsulotlari bojxona chegarasini kesib o'tgan paytdan e'tiboran amalda olib chiqilguniga qadar bojxona nazorati ostida turadi. Shu boisdan, tovarlar respublika hududida qayta ishlangandan so'ng, ularni eksport yoki reeksport rejimida olib chiqishda bojxona hamrohligida kuzatuvga olinishi talab etiladi. Bu ham tadbirkorlar uchun ortiqcha vaqt va mablag'lari sarflashiga olib kelayotganligi;

- Bojxona kodeksining 80-moddasiga ko'ra, bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi olib kirilgan tovarning qayta ishlash mahsulotlarini yoki uning qoldiqlarini, shuningdek tovarni qayta ishlash chiqindilarini belgilangan muddati tugaydigan kundan kechiktirmay olib chiqish yoxud ularni boshqa bojxona rejimlariga joylashtirish bilan tugallanishi kerakligi belgilangan.

Bunda, qayta ishlash rejimiga rasmiylashtirilgan tovarni qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan qayta ishlash mahsulotini boshqa tadbirkorlik subyekti tomonidan yana qayta ishlash maqsadida mazkur (qayta ishlash) rejimiga joylashtirish imkoniyati mavjud emas.

Yuqorida keltirilgan muammoli vaziyatlarni bartaraf etish va tadbirkorlik subyektlariga yanada qulayliklar yaratish, hamda Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo'llashga doir tartibotlarini yengillashtirish orqali eksport salohiyatini oshirish maqsadida, o'rganish yakunlari yuzasidan quyidagilarni amaliyotga joriy etish taklif etiladi:

- "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirish uchun olib kelinadigan chet el tovarlarini vakolatli shaxsning arizasiga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish obyektiga olib ketishga ruxsat berish;

- mahalliy tadbirkorlarga olib kirish shartnomasi asosida o'z egaligida qolayotgan xom ashyo hamda ulardan tayyorlangan mahsulotlarni erkin muomalaga chiqarish huquqini berish;

- olib kirish bilan bog'liq har qanday turdagi tashqi savdo shartnomasi asosida qayta ishlash operatsiyalarini amalga oshirishga ruxsat berish;

- qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni "erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga rasmiylashtirishda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini majburiy tasdiqlash hamda sanitariya-epidemiologik (iste'molga ishlatishidan tashqari) xulosani taqdim etish talabini bekor qilish;

- qayta ishlash mahsulotlarini "reeksport" bojxona rejimida olib chiqilishida tovarlarga nisbatan bojxona hamrohligida kuzatib borish talabini bekor qilish;

- qayta ishlash mahsulotlari bilan bog'liq bojxona operatsiyalarini "kooperatsiya tartibida" boshqa ishlab chiqaruvchilar tomonidan "tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirish orqali yakunlashga ruxsat berish;

- tashqi iqtisodiy faoliyati tovar nomenklaturasining ayrim kodlariga mansub tovarlarni bojxona maqsadlari uchun qayta ishlash mahsulotlarining standart chiqish normalarini belgilash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi: rasmiy matn. – T.: O'zbekiston, 2016. – 173 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 25.04.2022-yildagi PF-115- son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 12.10.2022-yildagi PQ-392-son.
4. WCO Handbook on Inward and Outward Processing Procedures, World Customs Organization, may 2017.
5. European Union Special Procedures of Processing (Inward and Outward Processing) and Temporary Admission, WTO Trade Facilitation Committee, Note from the European Commission.
6. <https://president.uz>
7. <https://customs.uz>
8. <https://stat.uz>